



QASHQADARYO O'ZBEKLARI NIKOH MAROSIMINING TARIXIY-ETNOGRAFIK ASOSLARI

**Tursunova Iroda Aminovna, Qodirova Hilola Karimberdi qizi,
Qodirova Zilola Karimberdi qizi,**

Qarshi davlat texnika universiteti

Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasasi assistenti

karimovna_z@mail.ru +998936104004

07.00.01 UO'K 392.51(=512.133)(575.14)

0009-0003-7001-4694

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20291902>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 13-may 2026 yil

Ma'qullandi: 16-may 2026 yil

Nashr qilindi: 19-may 2026 yil

KEY WORDS

Qashqadaryo, oilaviy marosimlar,
nikoh, dala-kuzatuvlari,
transformatsiya, Koson, Qarshi,
madaniy meros.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasi o'zbeklarining oilaviy marosimlari tizimi tarixiy-etnografik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida mintaqa aholisining nikoh marosimlari bilan bog'liq urf-odatlarining shakllanish bosqichlari, ularning lokal xususiyatlari hamda etnik guruhlar o'rtasidagi farqli jihatlari ochib berilgan. Dala-etnografik kuzatuvlari va tarixiy manbalarga tayangan holda, voha marosimlarida saqlanib qolgan qadimiy e'tiqodlar qoldiqlari va ularning bugungi kundagi transformatsiya jarayonlari o'rganilgan. Maqolaning ilmiy ahamiyati Qashqadaryo (Koson, Qarshi shahri) etnografiyasining o'ziga xos qiyofasini tizimli yoritish hamda milliy qadriyatlarining tarixiy ildizlarini aniqlashdan iborat va madaniy merosni saqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

ИСТОРИКО-ЭТНОГРАФИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СВАДЕБНЫХ ОБРЯДОВ УЗБЕКОВ КАШКАДАРЬИ

**Турсунова Ирода Аминовна, Кодирова Хилола
Каримберди кизи, Кодирова Зилола Каримберди кизи,**

Ассистент кафедры социально-гуманитарных
наук Каршинского государственного
технического университета

Аннотация: В данной статье с историко-этнографической точки зрения анализируется система семейных обрядов узбеков Кашкадарьинского оазиса. В процессе исследования выявлены этапы формирования обычаев, связанных со свадебными церемониями населения региона, их локальные особенности и различия между этническими группами. На основе полевых этнографических наблюдений и исторических источников изучены пережитки древних верований, сохранившиеся в обрядах оазиса, а также процессы их современной трансформации. Научная значимость статьи заключается в системном освещении специфического этнографического облика Кашкадарьи (на примере Косона и города Карши) и определении исторических корней

национальных ценностей, что служит важной научной основой для сохранения культурного наследия.

Ключевые слова: *Кашкадарья, семейные обряды, свадебные традиции, полевые исследования, трансформация, Косон, Карши, культурное наследие.*

HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC FOUNDATIONS OF WEDDING RITUALS OF THE KASHKADARYA UZBEKS

Tursunova Iroda Aminovna, Kodirova Khilola Karimberdi kizi

Kodirova Zilola Karimberdi kizi,

Assistant of the Department of Social
Sciences and Humanities, Karshi State
Technical University

Abstract: This article analyzes the system of family rituals of the Uzbeks in the Kashkadarya oasis from a historical and ethnographic perspective. The research reveals the formation stages of customs related to marriage rituals of the regional population, their local characteristics, and differences between ethnic groups. Based on field ethnographic observations and historical sources, the remnants of ancient beliefs preserved in the rituals of the oasis and the processes of their modern transformation are studied. The scientific significance of the article lies in the systematic coverage of the unique ethnographic identity of Kashkadarya (Koson, Karshi city) and the identification of the historical roots of national values, serving as an important scientific basis for the preservation of cultural heritage.

Keywords: *Kashkadarya, family rituals, marriage, field observations, transformation, Koson, Karshi, cultural heritage.*

KIRISH

Globalashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan, madaniyatlarni bir xillashtirayotgan bugungi davrda har bir xalqning o'zligini anglashi, milliy qadriyatlarini saqlab qolishi nafaqat dolzarb va ilmiy balki milliy xavfsizlik darajasidagi muhim vazifadir. Qashqadaryo vohasi o'zining qadimiy tarixi, rang-barang etnografik qiyofasi va asrlar davomida sayqallanib kelgan an'analari bilan O'zbekiston madaniy merosida alohida o'rin tutadi.

Tashqi madaniy ta'sirlar kuchaygan bir sharoitda vohaning o'ziga xos marosimlari, urf-odatlar va an'anaviy turmush tarzi xalqning "genetik kodi"ni saqlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Qashqadaryo — o'zbek xalqining shakllanishida qatnashgan turli etnik guruhlarining (qo'ng'iroq, yuz, qirq, barlos, qovchin, kerayit, mang'it, qipchoq, saroy) qadimiy an'analari sintezi saqlanib qolgan kam sonli hududlardan biri hisoblanadi.

Jamiyatning eng muhim hujayrasi hisoblanmish oilaning ibtidosi nikoh hisoblanadi. Shuning uchun ham insoniyat ibtidoiy davrdan boshlab marosimlar, urf-odatlar tizimi orqali oilaning mustahkam bo'lishiga qaratilgan tadbir sifatida nikoh marosimini o'tkazib keladi.

Qashqadaryo vohasi o'zbeklarining nikoh to'yi marosimlari o'zining qadimiyliigi, etnik rang-barangligi va o'ziga xos lokal xususiyatlari bilan ajralib turadi. Vohada nikoh to'yi nafaqat ikki yoshning ittifoqi, balki keng jamoatchilik, qarindosh-urug'chilik, qo'ni-qo'shnicilik va mahalla-kuy ishtirokidagi murakkab marosimlar tizimidir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Bizning davlat siyosatimizda bundan buyon ham barcha millat va elat vakillarining milliy o'zligini, ona tili va madaniyatini, dini, urf-odat va an'alarini saqlab qolish va rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beriladi"[1, 464-b.].

Nikoh to'yi - o'zbek xalqi etnik madaniyatidagi muqim saqlanib kelayotgan, tashkiliy nuqtai nazardan transformatsiyalarga uchragan bo'lsa-da, ijtimoiy mohiyatiga ko'ra insonparvarlik g'oyalari targ'ib etuvchi milliy qadriyatlardan biridir.

O'zbeklarning o'zaro mehr-oqibati, ezgulikka yo'g'rilgan urf-odatleri, rasm-rusumlari, an'ana, taomil va udumlari, ularning ajdodlaridan avlodlariga singdirilishidan hayoratga tushgan sayyoh Herman Vamberi, "O'rta Osiyo xalqlarining urf-odatlarini yuksak darajada maqto'vga sazovor bo'ladigan tomonlari shuki, ular o'z milliy xarakteriga ega bo'lgan ajoyib fazilatlarini qat'iyat bilan saqlaydilar", - deb yozgan edi [2, 296-b].

Adabiyotlar tahlili va usullari

Qashqadaryo vohasi, xususan Koson tumani va Qarshi shaharlari o'zbeklarining nikoh marosimlari o'zining qadimiy ildizlari va o'ziga xos lokal xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu hududlar etnogenezida o'troq dehqon va chorvador-dasht madaniyatlarining sintezi muhim rol o'ynagan.

"Nikoh" (نكاح) so'zi arabcha (نكح) "nakaha" fe'lidan yasalgan bo'lib, uylanmoq, turmushga chiqmoq, yigit va qizni shariat yo'li bilan qonuniy rasmiylashtirish, oilaviy ittifoq degan ma'nolarini anglatadi. Qashqadaryo viloyatining Qarshi va Koson hududlarida nikoh to'yi tizimidagi marosimlar va ularning nomlanishi o'ziga xos mahalliy xususiyatlarga ega, jumladan «nikoh to'yi», «ijob to'yi», «kelin tushirar to'yi» deb nomlangan.

Nikoh to'yi tizimida bir qancha marosimlar mavjud, uy ko'rar (qiz ko'rar), sovchilik, sep taxlar, to'qqiz berish (to'qqiz tavoq), qiz oshi (qizlar majlisi), kelin tushirish, yuz ochdi, kelin salom, chorlari kabi marosimlar va ular bilan bog'liq rasm-rusumlar bo'lib, ular hozirgacha saqlanib, amal qilinib kelinadi

O'zbek xalqning moddiy va ma'naviy madaniyat oilaviy va jamoaviy hayot jarayonlarini o'rganishda O. Bo'riyevning xizmatlari kattadir. [3, 45-52-b].

Qashqadaryo vohasida joylashgan etnik guruh, etnik urug'larning kelib chiqishi, yarim o'troq va yarim ko'chmanchi urug'larining o'ziga xos etno-lokal xususiyati, ularning turmush tarzi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniyati va qo'shni jamoalar bilan qo'shnihilik munosabatlari haqida O. Bo'riyev tadqiqotlarida keng yoritilgan. Janubiy O'zbekiston mintaqasi aholisi etnik tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan O. Bo'riyevning qator maqola va monografiyalari tadqiq etilayotgan mavzu bo'yicha muhim ma'lumotlarni beradi.

Viloyatning eng qadimiy shaharlaridan biri Koson tumanida nikoh marosimlari ko'proq konservativ va urug'-aymoqchilik an'analariga sodiqligi bilan ajralib turadi. Masalan, "sovchilik" jarayonida urug' oqsoqollarining o'rni hali ham yuqori.

Ma'muriy va savdo markazi bo'lgani sababli, Qarshi shahrida esa marosimlar birmuncha universallashtirish va shahar madaniyatiga xos "hashamatli" elementlar tezroq kirib kelgan. Biroq, "nasli-nasab" surishtirish va "quda-andachilik" etiketi Qarshida juda nozik va murakkab tizimga ega.

Kelin tushirish dastlab uy ko'rdi (qiz ko'rdi) marosimidan boshlanadi. Ma'lumki o'tmishda, nikoh to'yi faqat ota-ona tavsiyasi va ra'yiga ko'ra o'tkazilgan. Bu odat ayrim yerlarda hozirgacha saqlangan. Yigitning onasi, ammasi, yoki xolalaridan biri mo'ljallangan qizlarning xonadoniga tashrif buyurib, «mehmonga keldik» bahonasi bilan qiz ko'radilar, hovlisining tozaligi, uylarining tartiblilikiga razm soladilar; qaysi qiz ma'qul kelsa, unikiga sovchi yuborganlar.

O'zbeklarda sovchilar kichik va katta sovchilarga bo'linadi. «Kichik sovchi»lar (ko'pincha ayollar) ishni bitirib qaytganlaridan so'ng «katta sovchi»lar to'y xarajatlarini va ayrim joylarda qalin miqdorini belgilaganlar. Ko'plab yerlarda sovchilikka kuyovning tog'asi va elning so'zamol

hurmatli «oqsoqoli» borgan. Qiz tomon sovchilarga turli ramziy ishoralarda (kovushini o'nglab qo'yish) norozilik belgisini ifodalagan bo'lsa, rozilik alomatini sovchilar oldiga qo'yilgan yog'li, tansiq taomlarda ham bildirgan.

Qashqadaryo vohasida nikoh bir necha bosqichdan iborat [4, 142-b.].

Fotiha to'yi (Non sindirish) – Ikki tomon kelishuvining rasmiylashtirilishi. Kosonda bu marosimda kelinning tog'alari va amakilariga alohida hurmat ko'rsatish ("sarpo berish") an'anasi kuchli. Qalin va sut haqi Qashqadaryoning dasht hududlarida (Kosonning Tulg'a, Toshli qishloqlari) qalin puli yoki chorva berish an'anasi saqlanib qolgan bo'lsa, Qarshi shahrida bu ko'proq mebel va uy jihozlari (sep) shakliga o'tgan. Kelintushdi: Kelinni kuyov xonadoniga olib kelishda "olovdan aylantirish" (poklanish ramzi) va "oyna ko'rsatish" kabi arxaik odatlar saqlangan.

Nikoh to'yi tizimidagi marosimlardan fotiha to'yi (kichik to'y) bo'lgan. Sovchilarning so'nggi borishida fotiha kuni belgilangan. Bo'lajak kelinning uyida o'tkaziladigan fotiha to'yi davrasiga jamoaning e'tiborli qariyalari, oqsoqoli ham taklif etilgan va bu kun «non sindirish» marosimi o'tkaziladi. Fotiha to'yi yakunida o'zaro ikki tomonning o'zaro kelishuviga ko'ra to'y va nikoh kuni belgilangan. Fotiha to'yidan katta to'yigacha bo'lgan vaqtda qudalar tovoq qaytarish, «ko'rpa soldi», to'qqiz, «qiz bazmi (qiz majlisi)» kabi marosimlar o'tkazilgan. Yigit tomon bayramlarda kelinga hayitlik sovg'alar yuborib turgan.

Nikoh to'yi kuni yoki bir kun oldin qiz tomonga to'yning oshi uchun katta bozorlik qilib yuboriladi. Qiz xonadonida jamoaga osh tortiladi. O'sha kuni ko'pincha kuyovnikida ham osh beriladi. To'y kuni yoki to'ydan bir kun oldin qizning otasinikida nikoh marosimi o'tkaziladi. Kuyov yaqin jo'rasi, tog'asi bilan bo'lajak kelin xonadoniga borgan. Imom bo'lajak kuyovga er-xotinlikning burch va huquqlarini tushuntirgach, qizning yaqinlari orqali ruxsatini olib keyin «Xutbai nikoh» o'qilgan.

Kelinni kuyovnikiga olib ketguncha o'tkazilgan «kelin yashirar», «it irillar», «chiroq aylantirar», «soch siypatar», «oyna ko'rsatar», «qo'l qisar», «to'shak to'ldirar» kabi qator udumlar o'tkazilgan va ularning ayrimlari hozir ham saqlanib qolgan. Kuyovnikida kelinni uch marta gulxandan aylantirilib ichkariga olib kirishda «bo'sag'adan tavob olish», «to'y ahliga salom berish» odatlari bajarilgan. To'yning ertasi kuni «bet ochar», «kelin salom» kabi udumlarning bajarilgan.

Tarixiylik tamoyili nuqtai nazaridan, sho'rolar davridagi "qizil to'ylar" dan keyin mustaqillik yillarida islomiy qadriyatlar (nikoh o'qitish) va milliy o'zlikka qaytish jarayoni kuchaydi. Bugungi kunda keksa avlod vakillari to'ylarning fayzi va ma'naviy tomonini ta'kidlasa, yoshlar ko'proq tashqi effektlar va zamonaviy restoran to'ylariga moyil. Ilgari to'ylar bir necha kun davom etgan bo'lsa, hozirda iqtisodiy va vaqt omili tufayli ular bir kunga (restoran marosimiga) aylangan. Qarshi shahri va Koson tumani nikoh marosimlari bir voha madaniyati doirasida bo'lsa-da, biri shahar subintelligensiyasi va savdo madaniyatini, ikkinchisi esa kuchli etnik-urug' va qishloq an'analarini o'zida aks ettiradi.

Natija va muhokama

«Qashqadaryo o'zbeklari nikoh marosimining tarixiy-etnografik asoslari» mavzusida olib borilgan dala-etnografik kuzatuvlar, tarixiy manbalar tahlili Qashqadaryo vohasi, xususan Qarshi va Koson hududlari nikoh marosimlarining o'ziga xos evolyutsiyasini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Koson tumanida nikoh marosimlarida etnik an'analar va urug'-aymoqchilik aloqalari ko'proq saqlanib qolgan. Bu yerda «sovchilik» va «fotiha» bosqichlarida qarindosh-urug'larning ishtiroki majburiy ijtimoiy norma hisoblanadi. Qarshi shahrida esa marosimlarning shahar madaniyatiga moslashishi, ya'ni urbanizatsiya jarayoni kuchliroq. Shaharda

marosimlarning namoyishkorlik xarakteri yuqori bo'lib, bu restoran to'ylari va zamonaviy shou-elementlarning ko'pligida namoyon bo'ladi.

Etnografik kuzatuvlar davomida aniqlandiki, Kosonning qishloq hududlarida kelin ostona xatlayotganda oyog'i ostiga qo'y yoki echki so'yish (qon chiqarish) yoki olov atrofida aylantirish kabi arxaik odatlar hamon uchraydi. Bu amallar bugungi kunda diniy e'tiqoddan ko'ra ko'proq «urf-odat» sifatida qabul qilinsa-da, ularning zamirida yangi oilani tashqi yomon kuchlardan himoya qilish istagi yotadi.

Dasht madaniyatiga yaqin Koson hududidagi Chorvador, Qanatli, Toshli arablarining «kelin tushirish» jarayonida otliqlar hamrohligi, uloq-ko'pkari musobaqalarining uyushtirilishi etno-lokal o'ziga xoslikni ifodalaydi. Qarshi shahrida esa «o'troq» aholiga xos bo'lgan pazandachilik madaniyati, «nahor oshi»ning o'ziga xos tartiblari va «kelin salom»ning murakkab an'anaviy tizim (etiket) ustuvorlik qiladi.

Bugungi kunda Qashqadaryo to'ylarida «global» va «lokal» madaniyatlarning sintezi kuzatilmoqda. An'anaviy «kelin salom» endilikda zamonaviy restoran sahnalarida, maxsus yoritish moslamalari va musiqiy guruhlar ishtirokida o'tkazilmoqda. Bu marosimning mazmunini (kelinning salom berishi) saqlab qolgan holda, uning shaklini zamonaviylashtirishdir. Shuningdek, «oq o'rar» (kelinga oq libos kiydirish) odati bilan parallel ravishda yevropacha «kelin ko'ylagi»ning kirib kelishi madaniy diffuziyaning natijasidir. To'y marosimlari Qarshi va Kosonda hamon ijtimoiy jipslashuv vositasi bo'lib qolmoqda. To'y oldidan o'tkaziladigan «maslahat oshlari» mahalla va qarindoshlar o'rtasidagi iyerarxik munosabatlarni tartibga soladi. Bu jarayonda yoshlar kattalardan marosim o'tkazish tartiblarini o'rganadilar, bu esa madaniy merosning avloddan-avlodga o'tishini (transmissiyasini) ta'minlaydi.

Xulosa

Qashqadaryo o'zbeklarining nikoh marosimlari o'zining tarixiy-etnografik asoslarini yo'qotmagan holda, zamonaviy ijtimoiy talablarga moslashib bormoqda. Kosonning etno-an'anaviy muhiti va Qarshining urbanlashgan madaniyati o'zaro ta'sirlashib, vohaning yaxlit, ammo rang-barang nikoh madaniyatini tashkil etadi. Qashqadaryo vohasi, xususan Qarshi shahri va Koson tumani o'zbeklarining nikoh marosimlarini tarixiy-etnografik jihatdan o'rganish quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga imkon beradi.

Qashqadaryo oilaviy marosimlari shunchaki o'tmish yodgorligi emas, balki bugungi kunda ham xalqning kundalik hayotida faol qo'llanilayotgan, tirik va doimiy rivojlanishdagi tizimdir. Globallashuv jarayonlariga qaramay, bu an'analar oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va ajdodlar merosiga hurmat ruhini shakllantirishda bosh omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot Qarshi shahrining urbanlashgan (shaharlashgan) madaniyati va Koson tumanining kuchli etnik-urug' an'analari o'rtasidagi nozik farqlarni ko'rsatdi. Agar Qarshida marosimlar ko'proq ijtimoiy maqom va zamonaviy etiketga tayansa, Kosonda ular ko'proq etnik jipslik va urug' ichidagi tartib-qoidalarga asoslanadi. Bu esa o'zbek xalqining madaniy merosi naqadar rang-barang va boy ekanligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda marosimlarning shakli tez suratlar bilan o'zgarib borayotgani (transformatsiyasi) ularni zudlik bilan ilmiy asosda hujjatlashtirishni taqozo etmoqda. Keksa avlod vakillari xotirasidagi noyob detallar, marosimlarda aytiladigan termalar, o'lanlar va duolarning mazmunini yozib olish, foto va video arxivlar yaratish milliy merosimizni kelgusi avlodlarga asl holicha yetkazishning yagona yo'lidir.

Nikoh marosimlari Qashqadaryoda mahalla va oila institutining jipsligini ta'minlovchi asosiy mexanizmdir. Ular orqali jamoaviy nazorat, o'zaro yordam (to'yona, hashar) va ma'naviy tarbiya

amalga oshiriladi. Bu marosimlarni ilmiy tadqiq etish nafaqat tarix, balki bugungi kun ijtimoiy muammolarini (isrofgarchilikning oldini olish, milliy qadriyatlarni tiklash) yechishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo o'zbeklarining nikoh marosimlari — xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma'naviy xazinasidir. Ushbu merosni etnografik jihatdan chuqur o'rganish va tizimli ravishda qayd etib borish milliy o'zlikni saqlab qolish va madaniy xavfsizligimizni ta'minlashda dolzarb vazifa bo'lib qolaveradi.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 2-jild. – T.: "O'zbekiston", 2018. – B. 464.
2. Vamberi H. Ocherki Sredney Azii. – Moskva., 1868. – S. 296.
3. Bo'riyev O. Qashqadaryo etnografiyasi. – Toshkent: Fan, 1991. – 124 b. (Voha nikoh marosimlarining lokal xususiyatlari bo'yicha eng muhim manba).
4. Bo'riyev O. O'zbek oilasi tarixidan. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 88 b.
5. Bo'riyev O. O'zbek xalqining oila va oilaviy marosimlari (tarixiy-etnografik kuzatuvlar). – Toshkent: Fan, 2005. – 142 b.
6. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 236 b. (Magik qarashlar, olov aylantirish va boshqa irimlar tahlili uchun).
7. Qorayev S. O'zbekiston etnotoponimlari. – Toshkent: Fan, 1991. (Koson va Qarshi atrofidagi etnik guruhlarning joylashuvi va tarixi uchun).
8. Narzullayeva S. Qashqadaryo vohasi o'zbeklarining nikoh marosimlaridagi lokal xususiyatlar // O'zbekiston etnologiyasining dolzarb muammolari. – Toshkent, 2014. – B. 78–84.
9. (Dala materiallari): Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri va Koson tumanida 1997-2024-yillarda muallif tomonidan o'tkazilgan etnografik kuzatuvlar va intervyular ma'lumotlari.